

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Mamanova Aziza Abduxaliq qizi

JizDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashning dolzarbligi va zarurati, tarbiya tushunchasi o‘ziga kelayotgan yosh avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e‘tiqod, burch va mas‘uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi masalalarni ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: Maktab, bilim, ko‘nikma, tarbiya, metod, shakllantirish, qadriyat, axloq.

USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN FORMING UNIVERSAL HUMAN VALUES IN SCHOOL STUDENTS

Abstract: The importance and necessity of forming the knowledge and skills of schoolchildren, educating them in the spirit of loyalty to national and universal values, the concept of education expresses the issues of creating intellectual maturity and worldview, human beliefs, duties and responsibilities, and moral qualities inherent in the people of our society based on the knowledge acquired in the growing younger generation.

Keywords: School, knowledge, skills, education, method, formation, value, morality.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В ФОРМИРОВАНИИ УНИВЕРСАЛЬНЫХ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ У ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: Важность и необходимость формирования знаний и умений школьников, воспитания их в духе преданности национальным и общечеловеческим ценностям, а также концепция образования, основанная на полученных знаниях у подрастающего поколения, представляют собой вопросы формирования интеллектуальной зрелости, мировоззрения, человеческих убеждений, долга и ответственности, нравственных качеств, присущих людям нашего общества.

Ключевые слова: школа, знания, умения, воспитание, метод, формирование, ценность, мораль.

O‘zbekistonda maktab ta’limini har tomonlama rivojlantirish masalasida tobora izchil ishlar amalga oshirib borilmoqda. Xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazish, ularda milliy va umuminsoniy, qadriyatlarga hurmat, o‘zlikni anglash va sadoqatlik tarbiyasini singdirish, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish asosiy maqsad va vazifalar sirasiga kiradi. Shu sababdan maktab ta’limini isloh etish, uni zamon talablari asosida tashkil etish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, tarbiya tushunchasi o‘ziga kelayotgan yosh avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va mas’uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.

Bugungi rivojlanayotgan davrda yurtimizda o‘tkazilayotgan tub islohotlar negizida yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash, o‘quvchi yoshlarga ta’lim tarbiya berish jarayonini yangilash masalasi jiddiy e’tibor talab qilmoqda. Ayni shu masalada ta’lim jarayonini mukammallashtirish, ta’lim mazmuni va sifatini boyitish, zamonaviy talablar asosida tashkil etish ustuvor davlat siyosati yo‘nalishlari qatorida bosh qomusimizda belgilab berilgan.

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida nazarda tutilgan davlat dasturlari mazmuniga muvofiq ishlarni amalga oshirish belgilangan.

Shuningdek, tarbiya deb pedagog o‘zi xohlagan ijobiy sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma’lum maqsadli va tizimli ta’sir ko‘rsatishiga aytiladi. Tarbiya inson umri davomida kechadigan uzluksiz jarayondir. Shu sabab tarbiya so‘zi, ko‘pincha, ta’lim jarayoniga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi.

Ta’lim – zarur bilimga ega mutaxassis boshchiligida tashkil etiladigan, o‘quvchida bilim, ko‘nikma va malakani hosil qiladigan, bolaning bilim va qobiliyatlarini rivojlantiradigan, dunyoqarashini o‘stiradigan jarayondir.

Tarbiya agar farzand dunyoga kelganidan to umrining oxirigacha oilada, maktab hamda jamoatchilik ta’sirida shakllanib kamol topsa, ta’lim esa chegaralangan (masalan, kabinet, sinf xonasi, laboratoriyalarda) joyda tashkil etiladi. O‘qituvchi - tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan vaqtda olib boriladi.

Ta’lim tizimining asosiy ustuvor maqsadi har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish, deb belgilangani barchamizga ma’lum. Xuddi shu mas’uliyatli vazifa milliy urf-odatlariga, an’analarga va qadriyatlarga tayangan holda olib borilishi, avvalo, davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarida o‘z aksini topgani fikrimizni isbotlaydi. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’ruzalarida bu borada aniq vazifalar ko’rsatib o’tilgan.

Ta’lim-tarbiya davomida eng muhim masala milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi sanaladi. Bu esa ajdodlar qoldirgan boy madaniy merosni kelajak avlodga qoldirish uchun asrlar mobaynida shakllangan urf-odatlar, an’analar yordamida ta’lim – tarbiya berishni talab etadi. Yurtimiz kelajagini diyorimiz aholisining asosini tashkil etuvchi yoshlar yaratadilar.

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalar asosida aytish kerakki, jismoniy tarbiya va sport vositasida o’quvchi yoshlarda milliy iftixor tuyg’ularini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko’ra yosh avlodni ma’nan yetuk qilib tarbiyalashda quyida berilganlarni bajarish maqsadga loyiq deb hisoblaymiz:

- Umuminsoniy va milliy qadriyatlarimiz to’g’risida keng tushuntirish ishlarini olib borish.

- Ilg’or faxriy sportchilar, polvonlar bilan uchrashuvlar, ochiq muloqotlar tashkil etish.

- Milliy qadriyatlarimizga bag’ishlangan turli anjumanlar, sport musobaqalari, ko’rik tanlovlari o’tkazish.

- Milliy qadriyatlar muammolari va yechimlariga bag’ishlangan ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qilish.

- Iqtidorli talaba sportchilarni ilmiy -tadqiqot ishlariga jalb etish.

- Respublikamizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bag’ishlab ilmiy anjumanlar tashkil etish.

- Milliy qadriyatlar, urf odatlar, an’analarga oid bilimlarni o’quvchi yoshlar ongiga singdirish yo’llarini kengaytirish.

- Buyuk siymo va ulug’ sarkardalar (Shiroq, Spitamen, To’maris, Pahlavon Mahmud, Mahmud Tarobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar) haqida davra suhbatlari tashkil qilish.

O’quvchilarga shonli tariximizni chuqurroq o’rgatish maqsadida tarixga oid zakovot o’yinlarini tez-tez tashkil qilish.

- Kurashning tarbiyaviy, falsafiy tomonlarini yanada kehgroq o’rganish.

- Bu borada milliylik xususiyatlarini hisobga olish, yo’lga qo’yish va ta’lim jarayonida milliy an’analardan unimli foydalanish.

- Tashkil etiladigan sport mashg’ulotlarini yanada takomillashtirish, tarbiyaviy tomonlariga ko’proq e’tibor qaratish.

- Milliy an’ana va qadriyatlarni tiklash, rivojlantirish, ulardan o’quvchi yoshlarni boxabar etish hamda umuminsoniy qadriyatlardan tarbiya jarayonida keng ko’lamda unimli foydalanish.

- Ta’lim-tarbiya jarayonlarini, milliy va umuminsoniy an’analarni, qadriyatlarni yangi zamon va istiqlool masalalari bilan bog’lab olib borish yo’llarini belgilash va boshqalar.

Xulosa: Sport yoshlarni sog’lom, faol va muvaffaqiyatli hayot kechirishlariga yordam beribgina qolmay, ularning har jihatdan rivojlanishida muhim rol o’ynaydi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, sport vositasida yoshlarda milliy iftixor tuygʻusini shakllantirishning dolzarbligi va zarurarti mavjud, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2023. – 120 b.
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
3. Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi Qonuni. 2015 yil 4 sentabr.